



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA EMOJLAR VA PIKTOGRAMMALARDAN FOYDALANISH.

Samarqand davlat chet tillari instituti

Ingliz tili fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til ingliz tili

yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Xolmatova Hamrobi Shermurod qizi

***Annotatsiya,** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda emoji'lar va piktogrammalardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Dars jarayonida ushbu vizual vositalar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, yozma nutq tuzish malakasi va mavzuga bo'lgan qiziqishi oshgani amaliy tajribalar asosida isbotlangan. Tadqiqot natijalari ushbu uslub ayniqsa past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun motivatsion omil bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** emoji'lar , piktogramma, yozish ko'nikmasi, boshlang'ich ta'lim, vizual vosita, kreativlik.*

***Abstract (In English)** This article analyzes the effectiveness of using emojis and pictograms in developing writing skills among primary school students. Through practical classroom experiments, it has been shown that these visual tools enhance students' creativity, sentence construction ability, and engagement in the learning process. The results indicate that this method serves as a motivational tool, especially for low-achieving students.*

***Keywords:** emojis, pictogram, writing skills, primary education, visual tool, creativity.*

***Аннотация (На русском языке)**В статье рассматривается эффективность использования эмодзи и пиктограмм в развитии навыков письма у учеников начальных классов. Практические занятия показали, что*



визуальные средства способствуют развитию креативного мышления, навыков построения письменной речи и повышают интерес к обучению. Результаты исследования показывают, что такой подход особенно полезен для учащихся с низким уровнем успеваемости.

Ключевые слова: эмодзи, пиктограмма, навыки письма, начальное образование, визуальные средства, креативность.

Bugungi kunda ta'lim sohasida innovatsion vositalar orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda emojlar va piktogrammalardan foydalanish orqali ijodiy va qiziqarli muhit yaratish mumkin. Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda ushbu vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi.

Asosiy qism:

Nazariy asoslar: Emoj - elektron muloqotda his-tuyg'ularni, harakatlarni, predmetlarni ifodalovchi kichik grafik belgilar bo'lib, hozirda ta'limda ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, kulayotgan yuz (😊), yig'layotgan yuz (😭), kitob (📖) belgilaridan foydalanib, o'quvchilarning kayfiyatini yoki mavzuga bo'lgan munosabatini ifodalash mumkin[1;24].

Piktogramma esa aniq bir ma'noni bildiruvchi rasmlı belgidir. Masalan, yo'l belgisi (stop belgisi), tualet belgisi, ovqatlanish joyi belgisi bolalar tomonidan tezda tushuniladi va matn yaratishda vizual asos bo'lishi mumkin. Quyida bir nechta piktogramma va emojlarga misollar berilgan.

1. Writing Tools 🖋

✎ Pencil – for practicing letters

📓 Notebook – for journaling

📝 Writing task – for assignments



 Crayons – for colorful stories

 Books – to read and get inspired

2 . Fun Activities for Writing ✨

 Cut and Paste – hands-on writing

 Draw and Write – creative stories

 Puzzle words – word games

 Dice stories – fun random writing

 Picture prompts – imagine & write

Yozuv ko'nikmasi - bu o'quvchilarning fikrni aniq, to'g'ri va mantiqiy izchillikda yozma shaklda ifodalash malakasi. Boshlang'ich sinflarda bu ko'nikma asta-sekin, rasm, hikoya, matn asosida shakllantiriladi. Masalan, o'qituvchi quyidagi rasmlarni beradi: qush (bird) , uy(home), bola(child) , va o'quvchi ushbu rasmlar asosida quyidagi jumlanı yozadi: "Bola qushga uy yasadi(A child make a house for bird).

Amaliy tajriba: Dars jarayonida emoji va piktogrammalardan foydalanish tajribasi quyidagicha tashkil etildi:

O'quvchilarga emoji lar ketma-ketligi beriladi, masalan: "👧 + 🍎 + 😊". Topshiriq: bu emoji larga qarab gap tuzing. Javob: "Qiz olma yeb xursand bo'ldi." [1;26]

Piktogrammalar asosida gaplar tuzish mashqlari: masalan, rasmda kitob, qalam, soat berilgan. O'quvchi: "Soat to'qqizda men qalam va kitob olib dars qildim." Yoki bola, maktab, avobus rasmlari berilgan bo'lsa quydagicha gap tuzish mumkin. "Bola maktabga avtobusda bordi".

Interaktiv doskada emoji lar orqali vaziyat yaratildi: "☀️ + 🧒 + ⚽". O'quvchilar ushbu belgilar asosida: "Quyoshli kunda bola futbol o'ynadi" kabi gaplar yozdilar. Natijalar: Tajriba darslaridan so'ng o'quvchilarning yozuvga bo'lgan qiziqishi oshgani, gap tuzish malakasi rivojlangani, ijodiy yondashuvi kuchaygani kuzatildi.



Masalan, ilgari ikki soʻzli jumla yozgan oʻquvchi tajribadan soʻng besh-olti soʻzli hikoya yozishga harakat qiladi. Ayniqsa past oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar uchun bu usul koʻproq motivatsiya beradi. Ulardan biri shunday degan: "Emoji boʻlsa oʻylab yozish osonroq boʻladi."

Muhokama: Emodji va piktogrammalardan foydalanish orqali:

- ❖ Oʻquvchilarning tasavvuri va ijodiy fikrlashi rivojlanadi (masalan, "🚲 + 🏔️" emodjilari orqali: "Bola togʻga velosipedda bordi" deb yozish);
- ❖ Yozma nutqni oson va tushunarli shaklda ifodalash imkoniyati paydo boʻladi;
- ❖ Anʼanaviy usullarga nisbatan bolalar qiziqishi oshadi.

Ammo haddan tashqari koʻp emodji ishlatish diqqatni chalgʻitishi, baʼzan notoʻgʻri tushunilish ehtimoli bor. Masalan, "yurak" emodjisi turli kontekstlarda turlicha tushunilishi mumkin.

Xulosa, yozuv koʻnikmasini shakllantirishda emoji va piktogrammalar vositasida oʻquvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mumkin. Oʻqituvchilar ushbu vositalarni mavzuga mos holda, meʼyorida va maqsadga muvofiq qoʻllashlari zarur. Kelajakda bu yoʻnalishda dars ishlanmalari va metodik qoʻllanmalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq boʻladi. Bundan tashqari bularni dasr jarayonlarida qoʻllash oʻquvchilarni darsga boʻlgan eʼtiborini jalb qilishda samarali usullardan boʻlishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxoʻjayeva N.N. Pedagogika texnologiyasi va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2020. – B. 24–26.
2. Anderson, L.W. & Krathwohl, D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 2001.



3. Vygotsky, L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
4. Meskill, C. (2005). "Computer-Assisted Language Learning: Beyond the Classroom." Language Learning & Technology, 9(3), 1-17.
5. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2006). Reading Images: The Grammar of Visual Design. Routledge
6. Gee, J.P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. Computers in Entertainment, 1(1), 20-20.
7. Thurlow, C., & Mroczek, K. (2011). Digital Discourse: Language in the New Media. Oxford University Press.